



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI

“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION TASHABBUSLARI: YANGIJOHA YONDASHUVLAR VA TRANSFORMATSIYALAR”

I respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani

**I Sho'ba: Yangi O'zbekistondagi zamonaviy
ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlarda
talaba-yoshlarning o'rnini va ahamiyati**

2025-yil 27-mart



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
JAMOAT XAVFSIZLIGI UNIVERSITETI**

**ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR**

**II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*I-Sho‘ba. Yangi O‘zbekistondagi zamonaviy ta’lim va ilm-
fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati*

2025-yil 27-mart

I QISM

TOSHKENT – 2025

YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

9. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

10. Haydarova, Z. N. (2024). Individual yondashuv asosida hozirgi zamon o'quvchilarida raqamli savodxonlikni shakllantirish. Mug'allim, 3(3), 199-206.

11. Haydarova, Z.N.(2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

INNOVASION G'OYALAR VA STARTAPLAR: O'ZBEKISTON YOSHLARI TOMONIDAN YARATILAYOTGAN ZAMONAVIY YECHIMLAR

Xaydarova Zilola Normurodovna

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi

Chirchiq Davlat pedagogika universiteti talabasi

Globalashuv va raqamli iqtisodiyot davrida innovatsion g'oyalar va startaplar mamlakatlar taraqqiyotining asosiy drayveriga aylangan. Dunyoda kuchli raqobat mavjud bo'lgan bir sharoitda, har bir davlat ilm-fan va texnologiyalarni ilgari suradigan yoshlarni tayyorlash va ularni qo'llab-quvvatlashga intilmoqda. O'zbekiston ham bu jarayonlardam chetda qolmayapti. Bugun o'zbek yoshlari ilmiy va inonatsion tashabbuslar orqali mamlakat rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda. Startaplar orqali esa ular mavjud muammolarga zamonaviy va samarali yechimlar taklif qilmoqda.

Mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor vazifalaridan kelib chiqqan holda, kadrlar tayyorlash mazmunini takomillashtirish, xalqaro standartlar darajasiga mos oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash ta'limga texnologik yondashuvni talab etadi. Bunda bevosita ta'lim jarayonini, oliy ta'limning o'quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o'qitish usullarini keng joriy etish, ilmiy-ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash va zamonaviy tashkiliy shakllarni joriy etish muhim ahamiyatga ega bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda milliy ta'lim sohasida yangi islohotlar boshlandi. Ta'limni boshqarish hukumat boshlig'i tomonidan qattiq tanqidlarga uchradi. Respublika milliy ta'lim tizimini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish muammosiga tizimli innovatsion yondoshishga qaratilgan normativ – huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi.

“Innovatsiya” tushunchasi ingliz tilidan tarjima qilinganda (“innovation”) “yangilik kiritish” degan ma’noni anglatadi. “Innovatsiya” tushunchasi mazmunan aniq holatni ifodalaydi. Mohiyatiga ko‘ra innovatsion faoliyat ilmiy izlanishlar, ishlanmalar yaratish, tajriba-sinov ishlari olib borish, fan-texnika yutuqlaridan foydalanish asosida yangi takomillashtirilgan mahsulotni yaratishdan iborat. Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga tayyorgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi.

Innovatsion faoliyat pedagogning ruhiy, aqliy, jismoniy kuchini ma’lum maqsadga yo‘naltirish asosida, amaliy faoliyatni nazariy bilimlar bilan to‘ldirib borish, bilish, loyihalash, kommunikativ nutq va tashkilotchilik mahoratini rivojlantirishni talab etadi. Demak, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning rivojlanishi ta’lim tizimida ham tub o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga olib keladi.[1] Innovatsion g‘oyalar, ishlanmalar va texnologiyalarning ishlab chiqilishini tashkil etish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini targ‘ib qilish va amaliy foydalanish mexanizmlarini shakllantirishda ta’lim texnologiyalarining o‘rni va salmog‘i yuqoriligini ta’kidlash joiz.

Mamlakatimizda 2019 yilning oktabrida O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi qabul qilindi. Unda oliy ta’lim muassasalarida o‘quv jarayonini bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tkazish ahamiyatli yangilik bo‘ldi. Pandemiya sharoitida 2030 yilgacha Rivojlanish kontsepsiyasida ko‘zda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish kutilmagan va ko‘p jihatdan majburiy tezlashuvni qamrab oldi. “Ta’lim jarayonini, oliy ta’limning o‘quv reja va dasturlarini yangi pedagogik texnologiyalar va o‘qitish usullarini keng joriy etish zarurligi” ta’kidlanadi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorida belgilangan vazifalarning samarali echimini to‘liq ta’minlash maqsadida oliy ta’lim darajasini sifat jihatidan oshirish va tubdan takomillashtirish, oliy ta’lim muassasalari moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va modernizatsiya qilish, ularni zamonaviy o‘quv-ilmiy laboratoriyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash maqsadida Oliy ta’lim tizimini 2017-2021-yillarga mo‘ljallangan kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlandi.[2]

Ta’lim tizimining modernizatsiyasi davlat va jamiyat malakali kadrlarga, shaxsning esa sifatli ta’lim olishga bo‘lgan ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda ro‘y beradi. Ta’lim amaliyotida pedagogik texnologiyalarning qo‘llanilishi ta’lim tizimi modernizatsiyasining tarkibiy elementi hisoblanadi. Zamonaviy sharoitda ta’lim-

tarbiya jarayonlarini texnologiyalashtirish kam kuch va vaqt sarflagan holda kutilayotgan natijani qo'lga kiritishga imkon beradi, o'qitish sifatini yaxshilab, samaradorligini oshiradi. Pedagogik innovatsiyalar pedagogik faoliyatga yangiliklarning izchil olib kirilishini tavsiflaydi. Pedagogik innovatsiyalarning didaktik imkoniyatlariga ko'ra ta'lim tizimi va jarayoni rivojlanib boradi. O'qituvchining innovatsion faoliyati pedagogik jamoani harakatga keltiruvchi, olg'a undovchi, bunyodkorlikka rag'batlantiruvchi kuch sifatida namoyon bo'lib, ta'lim jarayonining sifatini kafolatlaydi. Shu sababli har bir o'qituvchi innovatsiyalarning mohiyatini to'la tushungan holda o'z faoliyatiga izchil tatbiq eta olishi zarur. Jahon xalqlari tajribasida mashhur pedagoglar tarbiya sohasida erishgan yutuqlarining muhim omillaridan biri – ular tarbiyalanuvchilarning faolligi va mustaqilligini oshirib, yoshlarning o'z-o'zini tarbiyalashi masalasini oqilona uyushtira bilganligidadir. Ular amalga oshirgan tarbiya tizimi ta'sirchanligining boisi tarbiya jarayonini o'z-o'zini tarbiyalashga rahbarlik qilish jarayoniga aylantira bilganliklaridadir. Tarbiyaning maqsadini tarbiyalanuvchilar oldiga qiyinchiliklarni yengish va kelgusidagi yutuqlarga erishish vazifasi qilib qo'ya bilishdadir.

Darhaqiqat, barkamol shaxsni tarbiyalash jarayoni faqat, kishi o'z-o'zini tarbiyalashga faol kirishgan va bu ishni muntazam davom ettirgan taqdirdagina samara berishi mumkin. O'zbekiston maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejarining bo'lajak o'qituvchisi milliy-ma'naviy qadriyatlarni va milliy axloqni mustahkam egallagan bo'lishi zarur. O'qituvchining kuchi va tarbiyaviy ta'siri, avvalo, mustaqillik mafkurasi, milliy istiqlol g'oyasi uning e'tiqodiga aylanganligidadir. Oliy o'quv yurtlarida yangi o'quv rejalari va dasturlari joriy etilishi, milliy madaniy qadriyatlarga doir adabiyotlarning ko'plab nashr etilayotganligi, yuqori malakali professor-o'qituvchilarning mavjudligi talaba yoshlarni ma'naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash ishini yuksak darajaga ko'tarishga imkon beradi. Bo'lajak mutaxassislariga berilayotgan bilimlar doirasini tobora kengaytira borish, ixtisoslik fanlariga doir bilimlarni puxta o'zlashtirishga erishish oliy maktabning asosiy vazifasidir. Shu bilan birga yosh mutaxassislar mustaqil o'qib, o'z bilimlarini muntazam oshira borish ko'nikmasini hosil qilishlari zarur. Bo'lajak mutaxassislar chuqur psixologik-pedagogik tayyorgarlikka ega bo'lishlari zarurligini hayotning o'zi taqozo etmoqda. Bo'lajak o'qituvchi pedagogika fanining nazariyasini, tarixini, didaktikasini, tarbiya nazariyasini va metodologiyasini, xususiyl metodikalarni, psixologiya va yoshlar fiziologiyasini yaxshi bilishi lozim.[3]

Xulosa qilib aytganda o'z-o'zini tarbiyalashning muhim omillaridan biri bo'lajak – mutaxassisning shaxsiy qobiliyat va imkoniyatlari bilan kasbiyl faoliyatning talablari o'rtasidagi uzilishni bartaraf etish zarurligini anglab, tushunib olishdan iborat. Bunday tushunchaning hosil bo'lishi har bir yigit, qizda o'z

bilimlarini oshirish ustida mustaqil ishlashga, o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish hissini uyg‘otadi.

Muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari:

1. Moliyalashtirish va investitsiya resurslariga cheklangan kirish;
2. Biznes tajribasining yetishmasligi va startaplarni tijoratlashtirishdagi qiyinchiliklar;
3. Yangi texnologiyalarni joriy qilish va ularga moslashishdagi murakkabliklar.

Yechimlar:

1. Startaplarni rivojlantirish uchun inkubatsiya va akselerator dasturlarning sonini oshirish;
2. Ta‘lim va trening dasturlarini kuchaytirish, yoshlarni texnologiya va innovatsiya sohalarida zamonaviy bilimlar bilan ta‘minlash;
3. Chet ellik investorlarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali moliyaviy bazani kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta‘lim tizimini yanada rivojlantirish choratadbirlari to‘g‘risida»gi. 2017-yil 20-aprel, PQ-2909-son qarori
2. Z.F.SHAROPOVA “Ta‘lim texnologiyalari” darslik. – T.:”Novro‘z” nashriyot. 2019. 7-13 betlar.
3. Nasirova Sh.N., Makhmudova M.A., Abdullaeva D.A. Efficiency of computer technology in teaching foreign languages ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal Impact Factor: SJIF 2020 = 7.13, p 1443-1450
4. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.
5. Haydarova, Z. N. (2023). Ta‘lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish zarurati. UzMU xabarleri, 1(10), 225-227.
6. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.
7. Normurodovna, H. Z. (2024). Building Digital Literacy As An Editorial Problem. *Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments*, 2(4), 56-64
8. Haydarova, Z. N. (2023). MAKTAB O ‘QUVCHILARIGA RAQAMLI O ‘RGANISH KO ‘NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. Academic research in educational sciences, 4(CSPU Conference 1), 1008-1013.
9. Haydarova, Z. N. (2024). INNOVATIVE METHODS AND PEDAGOGICAL–PSYCHOLOGICAL APPROACH TO THE FORMATION OF

DIGITAL LITERACY IN MODERN STUDENTS. Western European Journal of Historical Events and Social Science, 2(10), 27-31

10. Haydarova, Z. N. (2024). MOTIV VA MOTIVATSIYA - O.,QUVCHINING QIZIQISHLARI, BILISH DARAJASI HAMDA IJTIMOIIY MUHIT TA'SIRIDA SHAKLLANADIGAN OMIL SIFATIDA. SOHIBQIRON YULDUZI Ijtimoiy-tarixiy, tarixiy va ommabop jurnal, № 1-Maxsus son 2024 yil, 29-36.

11. Haydarova, Z. N., Husaynova, O.O'. (2024). RAQAMLI O'RGANISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHDA FAN O'QITUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR. Zamonaviy ta'lim va ma'naviy-axloqiy tarbiyaning dolzarb masalalari mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi. 2024 yil. 17-oktyabr.,

12. Haydarova, Z. N. (2023). Innovative Methods of Forming Students' Digital Learning Skills. International Journal on Integrated Education, 6(12), 37-42.

13. Haydarova, Z.N.(2024). Ta'limda raqamli savodxonlikni shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari. Raqamli transformatsiya, 1(1), 502-512.

INGLIZ TILIDAGI EKOLOGIYAGA OID TERMINLAR VA LEKSIK BIRLIKLARNING O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISHDAGI MUAMMOLAR

Ergasheva Nigora Kurbanovna

FDU dotsenti

Turg'unova Nigora Rustamjon qizi

FDU magistranti

Til va madaniyatning o'zaro bog'liqligi yaxshi tasdiqlangan haqiqatdir, chunki madaniyat tilga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bu bir sohadagi tilni boshqasidan farq qiladi. Tillar orasidagi madaniy kelib chiqishning o'ziga xosligi jamiyatda hurmatni talab qiladigan va bahslashmaslik kerak bo'lgan o'ziga xos hodisadir. Bundan tashqari, u turli jihatlarga, jumladan, har bir geografik hududdagi adabiy kompozitsiyalarga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Axborotni bir tildan ikkinchi tilga o'tkazish harakati ham til, ham madaniy omillarga diqqat bilan e'tibor berishni talab qiladi. Tarjima deganda manba tildan va unga aloqador madaniyatdan olingan ma'lumotni maqsadli tilga aylantirish harakati tushuniladi. Tarjima manba tili (Second Language) va maqsadli til (Target Language) o'rtasidagi ekvivalentlikni talab qiladi. Tarjimonlar tilni shunchaki tarjima qilishdan ko'ra madaniy farqlarni yetkazadilar, degan xulosaga kelish mumkin. Tarjima jarayoni madaniyatni tarjima qilinadigan asosiy jihat sifatida birinchi o'ringa qo'yadi, til vosita sifatida xizmat qiladi. Shunday

MUNDARIJA

TALABANING FAMILIYASI, ISMI, OTASINING ISMI	MAQOLA MAVZUSI	BETLAR
	O‘zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti boshlig‘i, yuridik fanlar doktori, professor, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan yurist RUSTAMBAYEV MIRZAYUSUP xakimovichning II-respublika talabalar ilmiy-amaliy anjumani ishtirokchilariga MUROJAATI	3-5
<i>Inatullayeva Mohigul</i>	O‘zbekistonda ilm-fan sohasidagi talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati	6-7
<i>Omonova Madinabonu</i>	Shayboniylar hukmronligi davrida me‘morchilik: buxoro me‘morchiligi	8-12
<i>Qoraxo‘jayev Saydullo</i>	Abdulla avloniy va uning hayotiy saboqlari	12-15
<i>Jahongirova Munira</i>	Mirzo muhammad haydarning "tarixi rashidiy" asarida shayboniylar va bobur munosabatlari	15-19
<i>Davlatboyeva Vasila</i>	Turkistonda matbuotning shakllanishi	19-25
<i>Ermatova Zulfiya Abdug‘aniyevna</i>	Imom al-buxoriyning hayot yo‘li hamda hadis ilmi rivojiga qo‘shgan hissasi	26-30-
<i>Po‘latov Ro‘zimurod Farhod o‘g‘li</i>	Yangi o‘zbekistonda – milliy iqtisodiyotni rivojlantirish	30-35
<i>Abdumajidova Komila Abrorbek qizi</i> <i>Abujakinova O‘g‘iljon Risqali qizi</i> <i>Mamajonov Sardor Zulfiqor o‘g‘li</i>	Tasviriy san‘at fanlarni o‘qitishda innovatsion yondashuv	35-38
<i>Muxtorova Zarinaxon Zarifjon qizi</i>	Developing innovative approaches to professional education in a modern multicultural environment	38-43
<i>Botirova Hilola Asqad qizi</i>	Yangi o‘zbekistondagi zamonaviy ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba-yoshlarning o‘rni va ahamiyati	43-45
<i>Djunaydullayeva Kamila Yunusovna</i>	Maktabgacha ta‘lim yoshdagi bolalarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda yangi o‘zbekistonda olib borilayotgan islohotlarning o‘rni	45-48
<i>Ozoda Ochilova Bahodir qizi</i>	INTERNET VA IJTIMOY TARMOQLARNING INSON RUHIYATIGA TA’SIRI	48-53
<i>Tashmetova Aziza Sagdullayevna</i>	The benefits of learning foreign languages in the process of globalization	53-56
<i>Qurbonazarova Shaxzoda Erkin qizi</i>	Interfaol ta‘lim metodlarining ahamiyati	56-59
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	Yangi o‘zbekistondagi zamonaviy ta‘lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar talaba	59-61

<i>N.I.Reyimova</i>	Matematika va informatika o'qituvchisini innovatsion kasbiy-pedagogik faoliyatga tayyorlash usullari va tamoyillari	275-277
<i>Azimjonova Mohichexra Bunyodbek qizi</i>	Maktabgacha ta'limda steam texnologiyasidan foydalanishni o'rganish	278-280
<i>Shuhrataliyeva Rayhona</i>	Ilm-fan sohasida talabalar uchun berilayotgan imkoniyatlar	280-284
<i>Mahmudova Ruhshona Zohidjon qizi</i>	Innovative teaching methods for generations alpha & beta in uzbekistan	284-288
<i>Rasulova Dilsora Bekturod qizi</i>	Yangi o'zbekistonda zamonaviy she'riyatning fan sohasidagi o'rni	289-293
<i>Зокирова Фарангиз Батыровна</i>	Важность формирования гражданской позиции в молодежной деятельности	293-297
<i>Nurmatova Nozima Jamol qizi</i>	Yangilanayotgan o'zbekistonda yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirishning zaruriyati	298-301
<i>Sodiqova Shahzoda Sirojiddin qizi</i>	Axborotning talabalarining ta'lim olish jarayonida tutgan o'rni va ahamiyati.	302-305
<i>Nabiyev Sherzod Baxrom o'g'li</i>	Amir temur ibn tarag'ay bahodirning hindistonga yurishi ilmiy-siyosiy talqinda.	305-308
<i>Raximberganova Malika Qurolbek qizi</i>	Hozirgi zamon yoshlarining ijtimoiy tarmoqlarga qaramligi va uning inson ongidagi psixologik ta'siri	308-311
<i>Rixsiboyeva Muazzam Mohirjon qizi</i>	Innovation g'oyalar va startaplar: o'zbekiston yoshlari tomonidan yaratilayotgan zamonaviy yechimlar	311-315
<i>Turg'unova Nigora Rustamjon qizi</i>	Ingliz tilidagi ekologiyaga oid terminlar va leksik birliklarning o'zbek tiliga tarjima qilishdagi muammolar	316-318
<i>Husaynova Orzigul O'ktam qizi</i>	Xorijiy tillarni o'qitishda masofaviy ta'lim muammolari va uni rivojlantirish yo'llari	319-322
<i>Temirbekov Sayfiddin Farxodjon o'g'li</i>	Yangi o'zbekistonda onlayn ta'lim tizimida kiberxavfsizlik platformalarining rivojlanishi va istiqbollari	323-330
<i>Xoliqova Ruhshona Javohir qizi</i>	Imkoniyati cheklangan bolalarni inklyuziv ta'lim va tarbiyalash konsepsiyasi	330-333
<i>Erkinov Shoxrux</i>	9-10 yosh o'quvchilarning gimnastika mashg'ulotlarida egiluvchanlik sifatini rivojlantirish.	333-338
<i>Varisova Begoyim Rivojiddin qizi</i>	Yangi o'zbekiston yoshlarida huquqiy madaniyatni yuksaltirish ma'rifatli jamiyatni rivojlantirish yo'li sifatida	339-342
<i>Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi</i>	Yoshlarning ma'naviy immunitetini kuchaytirishda besh tashabbusni tatbiqi	343-347

<i>Boboqulov Sarvar Choriyevich</i>	Yoshlarning ta'lim tizimidagi innovatsiyalari: masofaviy ta'lim va masofaviy o'qitishning yangi imkoniyatlari	348-350
<i>Eshonova Mubina Murodjon qizi</i>	1917-1991-yillarda o'zbekistonda ta'lim tizimi va pedagogik fikrlar rivoji	351-356
<i>Mamadaliyeva Dildora Alisher qizi</i>	Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining innovatsion faoliyati	356-359
<i>Mamatqulova Dilbar Sattorqul qizi</i>	O'zbekiston – yoshlar mamlakati	359-362
<i>Bozorboyeva Farangizbonu Baxtiyor qizi</i>	O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olish huquqlari va ular uchun ta'lim sohasida yaratilayotgan imkoniyatlar	362-365
<i>Norboyev Xudoyberdi Azamat o'g'li</i>	Zamonaviy yoshlarning ilmiy va innovatsion tashabbuslari: yangicha yondashuvlar va transformatsiyalar	366-367
<i>Mahmudova Muborak Azatovna</i>	Shifoxonada uzoq muddat davolanayotgan bolalar uchun ta'lim muhitini yaratish	367-371
<i>Sunnatova Sarvinoz Abror qizi</i>	Yangi o'zbekistonda zamonaviy ta'lim tizimini takomillashtirish va o'qituvchi maqomini yuksaltirish masalasi	371-374

**“ZAMONAVIY YOSHLARNING ILMIY VA INNOVATSION
TASHABBUSLARI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA
TRANSFORMATSIYALAR” MAVZUSIDAGI
II-TALABALAR ILMIY-AMALIY ANJUMANI
MATERIALLARI**

*I Sho'ba. Yangi O'zbekistondagi zamonaviy ta'lim va ilm-fan sohasidagi islohotlar
talaba-yoshlarning o'rni va ahamiyati*
2025-yil 27-mart

I-QISM

Muharrir: X.Xaknazarov.
Texnik muharrir: M.Ibotova.

Bosishga ruxsat etildi: __.__.2025. Buyurtma: № __ Format 60x90/16
Times New Roman garniturasida raqamli usulida bosilgan.
Hajmi:sh.b.t., 0,99 t.-h.t. Adadi: ____ nusxa.

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti bosmaxonasi